2027-yilga qadar O‘zbekistonda tibbiy radioizotoplar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yiladi

O’zbekiston Fanlar akademiyasi Yadro fizikasi instituti tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yadro energetikasi va yadro texnologiyalarining zamonaviy muammolari" nomli XI Xalqaro konferensiya doirasida mamlakatimizda yadro tibbiyotini rivojlantirish istiqbollariga bag'ishlangan sayyor sessiya bo'lib o'tmoqda.

Ushbu sessiyada qiymati 15 million AQSh dollaridan ortiq bo’lgan Gamma Systematics kompaniyasining loyihasi taqdimoti o'tkazildi.

Loyiha O'zbekistonda tibbiy radioizotoplar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan zamonaviy ishlab chiqarish majmuasini yaratishni ko'zda tutadi. Bu qadam sog'liqni saqlash milliy tizimini rivojlantirish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega tibbiy mahsulotlarni
mahalliylashtirish yo'lida muhim bosqich bo'ladi.